MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARINING FOND BOZORIDAGI INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	742
Yuldashev Fozil Turapovich	
MAKROIQTISODIY MUVOZANATNI MODELLASHTIRISHDA MATEMATIK USULLARNING TATBIQI VA PROGNOZLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	749
Abdiraimov Abbos Xolmurodovich	
ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ГОСУДАРСТВАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ.....	756
Мирзамухамедова Шахзода Акмалжон кизи	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH.....	762
Ismadiyrov Alisher Abduraxmon o'g'li	
СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СОСТОЯНИЙ ЧЕЛОВЕКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИМИ ОБОРОТАМИ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	766
Жумаев Шавкат ХХХ	
SUV XO'JALIGI SOHASIDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	769
Dilshod Pulatov, Dildora Mirzaeva	
МЕТОДЫ СБОРА И АНАЛИЗА ДАННЫХ ДЛЯ ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЦИФРОВЫХ ИНВЕСТИЦИЙ.....	776
Каракулов Фарход Зайпудинович	



НЕФОРМАЛЬНАЯ ЗАНЯТОСТЬ И ТЕНЕВАЯ СТОРОНА ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: АНАЛИЗ СТРУКТУРНЫХ ВЫЗОВОВ И ГОСУДАРСТВЕННЫХ МЕР ПО ЛЕГАЛИЗАЦИИ	782
Салахутдинова Юлдуз Голибовна	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLİYALASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	787
Xalikov Akmal Xolboyevich	
TIJORAT BANKLARDA MOLİYAVIY XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI	793
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
RAQOBATBARDOSH MUHITDA INNOVATSION MENEDJMENTNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI	799
Siddikov Askar Axrorovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI BAHOLASHNING MEZON VA USULLARI	803
Isakova Naima Ikromjonovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	809
Abdullayeva Iroda Shuxrat qizi	
MULTIMODAL TRANSPORT OQIMLARI SHAROITIDA LOGISTIKA XABLAR JOYLASHUVINI TANLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	813
Umirzaqov Davlatjon Dolimjon o'g'li, Axmedova Muslima Djalolovna	
SUG'URTA ZAXIRALARINI MOLİYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTDA AKS ETTIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	818
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	826
Nazarov Nazirjon Narzilloevich	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLİYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH VA ULARNI TAHLIL QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	830
Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna	
XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOJ-TARIF SIYOSATINI METODOLOGIK TAKOMILLASHTIRISH MODELLARI	837
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA)	844
Bekmetov Xursandbek Ilxamovich	
SOTISH KANALLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH	850
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
MINTAQ IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURIYATI	857
Achilova Firuza Kurbanovna	
TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH VA INVESTITSION KREDITLASH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH TAHLILI	862
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA BAHOLASH MEZONLARI	867
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI MOLİYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA MANBALARI	874
Rustamova Dilsabaxon Djurayevna, Baratov Maxsudali Nazaraliyevich	
KORXONA FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	881
Xashimova Dilyora Paxritdinovna	
TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	888
Masharipov Ravshan Rajabboyevich	



IQTISODIY, MOLIYAVIY, INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHİYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY XUSUSIYATLARI.....	893
Jurayev Xusan Atamuratovich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	900
Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi	



TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI

Kadirov Abdumalik Matkarimovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Farg'ona davlat texnika universiteti
Email: abdumalik.kadirov@ferpi.uz

Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi

Farg'ona davlat texnika universiteti
"Menejment" yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarining moliyaviy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy risklarning asosiy turlari, ularning kelib chiqish sabablari hamda ushbu risklarni oldini olish va kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining tijorat banklari faoliyatiga ta'siri, ularning moliyaviy risklarni boshqarish va kamaytirishdagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit, moliyaviy faoliyat, moliyaviy risklar, sun'iy intellekt, axborot xavfsizligi, iqtisodiy xavfsizlik.

Abstract. This article examines the main types of financial risks arising in the financial activities of commercial banks, the causes of their occurrence, and measures aimed at preventing and mitigating these risks. In addition, the impact of artificial intelligence technologies on the operations of commercial banks and their role in financial risk management and reduction is analyzed on a scientific basis.

Key words: commercial banks, credit, financial activity, financial risks, artificial intelligence, information security, economic security.

Аннотация. В статье рассматриваются основные виды финансовых рисков, возникающих в процессе финансовой деятельности коммерческих банков, причины их возникновения, а также меры, направленные на предупреждение и снижение данных рисков. Кроме того, проанализировано влияние технологий искусственного интеллекта на деятельность коммерческих банков и их значение в управлении и снижении финансовых рисков.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредит, финансовая деятельность, финансовые риски, искусственный интеллект, информационная безопасность, экономическая безопасность.

KIRISH

Hozirgi kunda jahon moliya bozorlarida murakkablik va o'zgaruvchanlik kuchayib borayotgan bir sharoitda moliyaviy risklarni boshqarish tijorat banklari uchun eng muhim masalalardan biri bo'lib chiqmoqda. Banklarning barqarorligi va rentabelligi kredit riski, bozor riski, likvidlik riski hamda operatsion risk kabi moliyaviy risklar ta'siri ostida jiddiy xavfga duch kelishi mumkin. Ushbu risklarni oldini olish va samarali boshqarish banklar faoliyatida yuqori darajadagi samaradorlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

An'anaviy risklarni boshqarish usullari ma'lum darajada samarali bo'lishiga qaramasdan, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash hamda tez o'zgaruvchan moliyaviy muhit sharoitida ularni boshqarish imkoniyatlari cheklangan hisoblanadi. Shu bois, moliyaviy risklarni oldini olish va samarali boshqarish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi mazkur yo'nalishda yangi imkoniyatlarni yaratib bermoqda, chunki ushbu texnologiyalar katta hajmdagi ma'lumotlarni tez va samarali qayta ishlash, moliyaviy jarayonlardagi trendlarni aniqlash, prognozlash hamda qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

V. Usosinning ilmiy tadqiqot ishlarida bank tizimida tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlardan olinadigan daromadlar orqali risklarni boshqarish masalalari yoritilgan bo'lib, kredit portfeli risklarning asosiy turlari — likvidlik riski, foiz riski va kredit riskiga moyilligi bilan tavsiflangan [11].

A. Mian va A. Safining tadqiqot natijalariga ko'ra, uy xo'jaliklarining o'z risklarini nazorat qilish imkoniyatlari firmalarnikiga nisbatan sezilarli darajada cheklangan. Bu holat uy xo'jaliklariga berilgan kreditlarning o'z vaqtida qaytmaslik ehtimolini oshirishi mumkinligini ko'rsatib beradi [12].

Iqtisodchi olimlar M. P. Proxorova, A. A. Shkunova hamda T. A. Yegorovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida tijorat banklari bozoridagi mavjud vaziyat va ularning moliyaviy risklari baholangan [3]. Tadqiqotlarda risklarni boshqarishning asosiy usullari, jumladan, diversifikatsiya, xedjlash, tuzilgan moliyaviy mahsulotlar va boshqa mexanizmlar ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, risklarni boshqarish usullarini tanlashda har bir bankning o'ziga xos holati va faoliyat xususiyatlarini inobatga olish zarurligi ta'kidlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tijorat banklarida yuzaga keladigan moliyaviy risklar, ularning kelib chiqish sabablari hamda banklarda tavakkalchilikni boshqarishning asosiy usullari, xususan, diversifikatsiya, xedjlash, tizimli moliyaviy mahsulotlar va boshqa mexanizmlar tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy tajribalar asosida tijorat banklarida risklarni boshqarish jarayonlari o'rganilib, banklarning barqaror va muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlashda samarali moliyaviy risklarni boshqarishning ahamiyati yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli¹ Farmonida mamlakatimiz bank tizimini rivojlantirish jarayonida mavjud bo'lgan qiyinchiliklar va muammolar, shuningdek, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Mazkur Farmon asosida bank sektorida davlatning ustun mavqei, banklarning turli davlat dasturlari va korxonalarini moliyalashtirishda vositachi sifatida faol jalb etilishi bir qator tizimli xatarlar va muammolarning yuzaga kelishiga olib kelgan.

Jumladan, yirik tijorat banklarining tarmoqda zamonaviy talablarga muvofiq transformatsiya jarayonlarida ortda qolishi, korporativ boshqaruv standartlari, axborot texnologiyalari mahsulotlari, aktivlar va passivlarni boshqarish hamda mijozlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha zamonaviy usullarni amaliyotga joriy etishdagi kechikishlar, aktivlar va passivlar dollarlashuvining yuqori darajada saqlanib qolishi, kreditlar va depozitlarning yirik kompaniyalar hamda iqtisodiyotning ayrim sektorlarida jamlanishi banklarni valyuta va kredit xatarlariga, shuningdek, likvidlik xavfiga duchor etmoqda.

2020-yil boshida xorijiy valyutada nominallashtirilgan kreditlar jami kreditlar hajmining 48 foizini, chet el valyutasidagi depozitlar va fondlar esa jami depozitlar hajmining 44 foizini tashkil etgan. Davlat ishtirokidagi banklar tomonidan berilgan kreditlar umumiy hajmining 36 foizi esa 10 ta eng yirik qarz oluvchilar hissasiga to'g'ri kelgan.

Mazkur holatlar banklarda moliyaviy risklarni oldini olishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Kredit risklarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, Xitoyning Industrial and Commercial Bank of China tijorat bankida qarz oluvchilarning kredit tarixi, daromadlari, bandlik holati va boshqa omillar asosida kredit riskini tezkor baholash imkonini beruvchi kredit scoring tizimi joriy etilgan. Ushbu tizim orqali kredit berish bo'yicha avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilinadi hamda muammoli vaziyatlar yuzaga kelish ehtimolini baholovchi modellar qo'llaniladi. Natijada qaror qabul qilish vaqti qisqaradi, risk ehtimoli kamayadi va kredit portfelinig samaradorligi oshadi.

Shuningdek, Xitoyning Construction Bank tomonidan real vaqt rejimida operatsion risklarni kuzatish va tahlil qilish tizimi joriy qilingan bo'lib, ushbu tizim bankka operativ muammolarga tezkor javob berish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni minimallashtirish imkonini beradi. Bank operatsion jarayonlarni takomillashtirish maqsadida ularni muntazam ravishda ko'rib chiqadi va baholab boradi.

JP Morgan Chase Bank tomonidan likvidlik riskini boshqarishda diversifikatsiya strategiyasidan foydalaniladi. Bank joriy va istiqboldagi majburiyatlarini qoplash uchun yetarli miqdorda likvid aktivlarga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida turli darajadagi likvidlikka ega bo'lgan aktivlardan iborat investitsiya portfelinig

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-4811025>



shakllantiradi. Shuningdek, bank ekstremal vaziyatlarga tayyorgarlik darajasini baholash uchun muntazam ravishda stress-testlar o'tkazadi.

Ispaniyaning yirik tijorat banklaridan biri bo'lgan Banco Santander qimmatli qog'ozlar bozoridagi risklarni boshqarishda xedjlash usullaridan foydalanadi. Bank aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlarga investitsiya kiritishda fyucherslar, opsiyonlar va boshqa hosilaviy vositalar orqali tavakkalchilik darajasini kamaytiradi. Bundan tashqari, bozor narxlarining o'zgarishini prognozlovchi modellardan foydalanish investitsiya qarorlarini yanada asosli qabul qilish imkonini beradi. Shu tariqa, moliyaviy risklarni boshqarish tijorat banklari uchun muhim vazifa bo'lib, ular mijozlar mablag'larining saqlanishi va bank faoliyatining barqarorligi uchun javobgardir.

Bank faoliyatida risklarni boshqarishning asosiy usullariga quyidagilar kiradi:

Portfelni diversifikatsiya qilish — turli turdagi aktivlar va moliyaviy vositalarga investitsiya kiritish orqali portfel tarkibini kengaytirish, bu esa muayyan aktiv bilan bog'liq risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xedjlash — ehtimoliy yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan moliyaviy vositalardan foydalanish orqali risklardan himoyalaniish. Masalan, bank aktiv narxining pasayishidan himoyalaniish maqsadida opsiyonlardan foydalanishi mumkin.

Strukturaviy moliyaviy mahsulotlar — ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan aktivlar va moliyaviy instrumentlar kombinatsiyasini shakllantirish orqali risk va daromadlilik nisbatini muvozanatlashtirish.

Risklarni chegaralash — bank tomonidan qabul qilinishi mumkin bo'lgan tavakkalchilik darajasi bo'yicha aniq limitlar belgilash.

Risklarni nazorat qilish — bank portfelidagi aktivlar bilan bog'liq risklarni doimiy monitoring qilish va tahlil etish orqali bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga tezkor moslashish.

Barqarorlik darajasini baholash — ekstremal bozor sharoitlarida bank portfelining barqarorligini aniqlashga qaratilgan stress-testlar o'tkazish.

Bugungi kunda bank faoliyatida eng ko'p uchrayotgan risklardan biri turli darajadagi firibgarlik holatlaridir. Tijorat banklarining moliyaviy tavakkalchiliklarini boshqarish muammosi bank faoliyatida risklarni boshqarishning doimiy zarurati nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi. Tijorat banklari o'z faoliyatida jiddiy yo'qotishlarga, hatto bankrotlikka olib kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarga duch kelmoqda. Shu sababli risklarni samarali boshqarish bank muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri sanaladi.

Hozirgi davrda bank sektori raqobatning kuchayishi, tartibga solish muhitining o'zgarishi hamda kibertahdidlarning ortib borishi kabi omillar ta'sirida faoliyat yuritmoqda. Shu munosabat bilan moliyaviy risklarni boshqarish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tijorat banklari faoliyatida yuzaga keladigan moliyaviy risklarning asosiy turlarini aniqlash, ularni boshqarish usullari va vositalarini o'rganish hamda zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

An'anaviy qoidalarga asoslangan firibgarlikni aniqlash tizimlari ko'pincha real vaqt rejimida ishlash imkoniyatlari bilan cheklangan. Sun'iy intellekt esa katta hajmdagi tranzaksiya ma'lumotlarini tezkor tahlil qilish imkonini beradi. Xususan, chuqur o'rganish, jumladan, neyron tarmoqlar asosidagi modellar tarixiy ma'lumotlar asosida murakkab naqshlarni aniqlab, firibgarlik operatsiyalarini yuqori aniqlikda bashorat qila oladi.

Shuningdek, KYC (Know Your Customer) jarayonlarini takomillashtirishda Natural Language Processing (NLP) texnologiyalaridan foydalanish mijozlar haqidagi ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Grafik tahlili tranzaksion munosabatlarni vizualizatsiya qilish orqali shubhali harakatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Bashoratli tahlil usullari esa an'anaviy kredit skoring modellariga nisbatan kengroq ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkonini beradi. Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan chatbotlar, biometrik identifikatsiya (yuz va ovozni aniqlash) tizimlari shubhali harakatlar haqida tezkor xabar berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy risklar bank faoliyatida yuzaga keladigan va iqtisodiy natijalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xatarlar majmuasidir. Ularga kredit riski, bozor riski, likvidlik riski va operatsion risklar kiradi.

Sun'iy intellekt tijorat banklarida bir qator afzalliklar bilan bir qatorda ma'lum cheklovlariga ham ega. Afzalliklari qatoriga tezkorlik va samaradorlik, aniqlik darajasining oshishi hamda o'z-o'zini rivojlantiruvchi mashina o'qitish modellari kiradi. Cheklovlariga esa tizimlarning murakkabligi, yuqori xarajatlar, ma'lumotlar sifati va axloqiy masalalar bilan bog'liq jihatlar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalari tijorat banklarida moliyaviy risklarni boshqarishda katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish uchun ularning texnologik va axloqiy jihatlarini chuqur anglash, doimiy monitoring va yangilab borish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bank tizimida turli dasturiy ta'minotlardan foydalanish, tezkor axborot olish va qaror qabul qilish, shuningdek, ma'lumotlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan ilg'or algoritmlar tijorat banklarida moliyaviy risklarni boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, alohida bank risklarini boshqarishni takomillashtirishda bir qator muhim xususiyatlarni inobatga olish zarur. Jumladan:



Kredit skoring. Sun'iy intellekt algoritmlari tarixiy ma'lumotlar asosida mijozlarning kredit salohiyatini yanada aniqroq baholash imkonini beradi. Mashina o'qitish modellari mijozlarning qarzlarni o'z vaqtida qaytarish ehtimolini aniqlashda moliyaviy holati, ish haqi, avvalgi kredit tarixi va boshqa ko'plab parametrlarni kompleks tahlil qiladi.

Prediktiv modellash. Sun'iy intellekt yordamida kredit risklarini prognozlash imkoniyati mavjud bo'lib, oldingi qarzlarni qaytarish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash orqali banklarga ehtimoliy risklarning oldini olish choralari o'z vaqtida ko'rish imkonini beradi.

Real vaqtli bozor tahlili. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida banklar bozorning o'zgaruvchan holatini real vaqt rejimida kuzatishi va prognoz qilishi mumkin. Xususan, valyuta kurslari, foiz stavkalari hamda aksiyalar bozorida o'zgarishlarni tezkor aniqlash risklarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

Algotrading (avtomatlashtirilgan savdolar). Sun'iy intellekt asosida tahlil qilingan bozor ma'lumotlariga tayangan holda banklar savdo operatsiyalarini algoritmlar orqali avtomatik ravishda amalga oshirishi mumkin bo'lib, bu bozor risklarini boshqarishda sezilarli darajada yordam beradi.

Jarayonlarning avtomatlashtirilishi. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish banklarda operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish, inson omilini kamaytirish va xatoliklar sonini qisqartirish imkonini beradi. Natijada operatsion risklar darajasi pasayadi.

Likvidlikni prognozlash. Sun'iy intellekt banklarga kelajakdagi likvidlik holatini oldindan prognozlashda yordam beradi. Xususan, o'zgaruvchan moliyaviy sharoitlarda banklarning zarur miqdordagi likvid aktivlarga bo'lgan ehtiyojini bashorat qilishda SI tizimlaridan samarali foydalanish mumkin.

Aktiv va passivlarni optimallashtirilgan boshqarish. Mashina o'qitish va tahliliy texnologiyalar banklarga aktivlar va passivlar balansini samarali boshqarish, risk va daromadlilik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Баринов А. Э. Финансы на мировом рынке: мифы, проблемы, реалии // Финансы и кредит. – 2021. – № 20 (188).
2. Балдин К. В. Риск-менеджмент: учеб. пособие / К. В. Балдин. – Москва: Эксмо, 2020. – 368 с. – ISBN 5-8297-0238-X.
3. Прохорова М. П., Шкунова А. А., Егорова Т. А. Тенденции финансового управления на современном этапе // Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. – 2018. – № 8 (34).
4. Ситников В. В., Русинов В. М. Управление рисками инновационных проектов: проблемы и решения // Вестник науки. – 2018. – № 2.
5. Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Современный экономический словарь. – 6-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 512 с. – ISBN 978-5-16-009966-8.
6. Стрелина Е. Н. Оценка и принятие финансовых решений в условиях неопределенности и риска на основе метода «анализа чувствительности» // Вестник ДНУ. – 2017. – № 3.
7. Yuli Andriansyah. The Role of Artificial Intelligence in Modern Banking: An Exploration of AI-Driven Approaches for Enhanced Fraud Prevention, Risk Management, and Regulatory Compliance.
8. Shah, P., & Gupta, R. (2021). AI in Credit Risk Management: A Comprehensive Review. Financial Innovations, 10(1).
9. Brockett, P. L., & Golden, L. L. (2019). Risk Management and Financial Institutions. John Wiley & Sons.
10. Усоскин В. М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.: ЛЕНАНД, 2019. – С. 218.
11. Mian, A., Rao, K., & Sufi, A. (2013). Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump // Quarterly Journal of Economics, 128(4), 1687–1726.
12. Kadirov, A. (2023). Theoretical and methodological foundations of ensuring financial and economic stability of enterprises. In E3S Web of Conferences (Vol. 402, p. 08005). EDP Sciences.
13. Kadirov, A. M. (2018). The role of labor resources in ensuring the economic sustainability of oil and gas industry companies in Uzbekistan. Экономика и предпринимательство, (11), 398–402.
14. Kadirov, A. (2018). Internal factors affecting the economic sustainability of industrial enterprises. Scientific Researches for Development Future, 47.
15. Кадилов А. М. (2021). Модель обеспечения экономической устойчивости промышленных предприятий на основе системы контроллинга.
16. Кадилов А. (2021). Саноат корхоналарининг иқтисодий барқарорлигини таъминлашда контроллинг тизими самарадорлигини баҳолаш // Иқтисодиёт ва таълим, (3), 152–158.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
